

## FARG'ONA VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISH VA XALQARO KREDIT REYTINGINING AHAMIYATI

*N.Q.Jo'rayeva*

*Farg'ona davlat universiteti, Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası mudiri*

*[Nodiraxonnum1@gmail.com](mailto:Nodiraxonnum1@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya faolligining ahamiyati, sohadagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, viloyatning “Fitch Ratings” xalqaro agentligi tomonidan “BB- G’ Barqaror” kredit reytingiga ega bo’lishi investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda muhim omil sifatida baholangan. Tadqiqotda hududning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy barqarorligi, investitsiya jozibadorligi va kichik biznes sub’ektlarining iqtisodiyotdagi roli ilmiy jihatdan yoritilgan. Muallif tomonidan kichik biznesni investitsiyalashni takomillashtirish bo’yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** investitsiya, kichik biznes, tadbirkorlik, xalqaro reyting, investitsion jozibadorlik, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o’sish, Fitch Ratings.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashuv jarayonlari, xalqaro kapital harakatining jadallashuvi hamda investitsiyalar uchun raqobatning kuchayishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o’sishni ta’minlash, yangi ish o’rinlari yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish va hududlar o’rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda investitsiyalar muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususiy sektor ulushini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va hududlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tez rivojlanuvchi segmenti hisoblanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish va bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli mazkur sektorning rivojlanishi bevosita investitsiya resurslari bilan ta’minlanganlik

darajasiga bog‘liqdir.

Farg‘ona viloyati aholi soni, mehnat resurslari, sanoat salohiyati va ichki iste‘mol bozori hajmi bo‘yicha mamlakatning yetakchi hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda neft-kimyano sanoati, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanganligi investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

2026-yil 7-may kuni Farg‘ona viloyatiga “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan “BB- / Barqaror” kredit reytingining berilishi hududning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy salohiyati xalqaro miqyosda e‘tirof etilganligini ko‘rsatadi. Ushbu holat hududga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Farg‘ona viloyatida kichik biznesni rivojlantirishda investitsiya faolligining o‘rni hamda xalqaro kredit reytingining iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning eng muhim omillaridan biri sifatida iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida keng tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy manbai sifatida e‘tirof etiladi. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida investitsiya oqimlari mamlakatlar va hududlar iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri masalasi klassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, J.M.Keyns investitsiyalarni yalpi talabning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, investitsiya xarajatlarining ortishi multiplikator effekti orqali ishlab chiqarish hajmi, bandlik va daromadlarning ko‘payishiga olib kelishini asoslab bergan. Olimning fikricha, investitsiyalar iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Neoklassik iqtisodiyot vakillari, jumladan R.Solou iqtisodiy o‘shish modelida investitsiyalar kapital jamg‘arishning asosiy manbai ekanligini ta‘kidlaydi. Solou modeliga ko‘ra, investitsiyalar hajmining oshishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga va uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasida investitsiyalar hududlar va mamlakatlarning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Olimning fikricha, investitsiyalar innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois investitsion muhitning jozibadorligi hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini boshqarish va uning samaradorligini oshirish masalalari

I.T.Balabanov tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Olim investitsion loyihalarni baholash, investitsiya risklarini aniqlash va kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqqan. Uning ilmiy qarashlarida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida baholanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Yo.A.Abdullayev investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish masalalarini tadqiq etib, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Muallif investitsion jarayonlarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zarurligini qayd etadi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vahobov, N.G'ofurov, Sh.X.Xoshimov va boshqa tadqiqotchilar investitsiya siyosati, hududiy investitsion rivojlanish hamda investitsion jozibadorlikni baholash masalalarini chuqur o'rganib, investitsiyalarning hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida hududlarning tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish investitsiya faolligining asosiy omili sifatida ko'rsatilgan.

So'nggi yillarda xalqaro kredit reytinglarining investitsion jozibadorlikka ta'siri masalalari ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xalqaro reyting agentliklari, xususan Fitch Ratings, Moody's Investors Service va Standard & Poor's tomonidan beriladigan kredit reytinglari investorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Mazkur reytinglar hudud yoki mamlakatning moliyaviy barqarorligi, qarz yuklamasi, boshqaruv sifati va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini beradi.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan hisobotlarda kredit reytinglari investitsion xavflarni kamaytiruvchi va xorijiy kapital oqimini rag'batlantiruvchi omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ularning tahlillariga ko'ra, yuqori kredit reytingiga ega bo'lgan hududlar xalqaro moliya bozorlarida mablag'larni nisbatan qulay shartlarda jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, hududiy kredit reytinglarining yaxshilanishi xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, Polsha, Turkiya va Qozog'iston tajribalarida hududlarning kredit reytinglari oshishi natijasida infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli ravishda ko'paygan. Bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, eksport salohiyati va tadbirkorlik faolligining ortishiga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro kredit reytinglarining bevosita kichik biznes rivojlanishiga ta'siri masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda kredit reytinglarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va investitsiya oqimlariga ta'siri tahlil qilingan bo'lsa-da, hududiy darajada kichik biznes subyektlarining investitsiya resurslariga kirish imkoniyatlari, moliyalashtirish shartlari va tadbirkorlik faolligiga ta'siri masalalari kam yoritilgan.

Mazkur holat Farg'ona viloyatining xalqaro kredit reytingiga ega bo'lishi sharoitida investitsiya faolligi va kichik biznes rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro

bog‘liqlikni tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ushbu tadqiqotda xalqaro kredit reytingining hududiy investitsion jozibadorlikka hamda kichik biznes faoliyatini rivojlantirishga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. bo‘lib, mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati ham aynan shu jihat bilan izohlanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi.

Xususan:

- iqtisodiy-statistik tahlil;
- qiyosiy tahlil;
- tizimli yondashuv;
- SWOT tahlil;
- ekspert baholash usuli;
- iqtisodiy mantiqiy tahlil metodlari qo‘llanildi.

SWOT tahlil orqali viloyatning investitsion salohiyati va kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlari baholandi. Tahlil natijalari asosida investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Farg‘ona viloyatining investitsion salohiyati tahlili. Farg‘ona viloyati Respublikada aholi eng zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatning qulay geografik joylashuvi, mehnat resurslarining ko‘pligi va sanoat bazasining shakllanganligi investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotida quyidagi sohalar ustuvor ahamiyatga ega:

- neft-kimyo sanoati;
- to‘qimachilik sanoati;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat sanoati;
- qishloq xo‘jaligi;
- xizmat ko‘rsatish sohasi;
- logistika tarmoqlari.

Ayniqsa, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, kimyo sanoati korxonalari va to‘qimachilik klasterlari hudud iqtisodiyotining o‘rish nuqtalari hisoblanadi.

So‘nggi yillarda tashkil etilgan:

- kichik sanoat zonalari;
- erkin iqtisodiy zonalar;
- innovatsion ishlab chiqarish markazlari;
- agroklasterlar
- investitsiya faolligining o‘rishiga xizmat qilmoqda.

Xalqaro kredit reytingining iqtisodiy ahamiyati. 2026 yilda «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi tomonidan Farg’ona viloyatiga «BB- G’ Barqaror» kredit reytingi berildi.

Mazkur reyting quyidagi ko’rsatkichlar asosida baholangan:

- byudjet intizomi;
- moliyaviy barqarorlik;
- iqtisodiy faollik darajasi;
- qarz yukining nisbatan pastligi;
- mahalliy boshqaruv samaradorligi.

Reytingning «Barqaror» prognozi yaqin istiqbolda hudud moliyaviy holatida jiddiy salbiy o’zgarishlar kutilmayotganligini anglatadi.

Xalqaro reytingning iqtisodiy samarasi quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

1. Xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi. Reyting investorlar uchun ishonch indikatorini hisoblanadi. Natijada investitsion xavf darajasi pasayadi va kapital oqimi ko’payishi mumkin.

2. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi. Reytingning mavjudligi Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliya institutlaridan mablag’ jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.

3. Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish. Yo’llar, elektr tarmoqlari, ichimlik suvi tizimi va raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish osonlashadi.

4. Kichik biznesni rivojlantirish. Investitsion muhit yaxshilanishi bank kreditlari hajmini oshiradi va yangi tadbirkorlik sub’ektlarini tashkil etishga xizmat qiladi.

**1-jadval**

**SWOT tahlil natijalari<sup>17</sup>**

<b>Kuchli tomonlar (S)</b>	<b>Kuchsiz tomonlar (W)</b>
Mehnat resurslari ko’pligi	Infratuzilma muammolari
Katta ichki bozor	Kredit foizlarining yuqoriligi
Sanoat salohiyati yuqori	Innovatsiyalar darajasi past
Xalqaro kredit reytingi mavjudligi	Ayrim hududlarda muhandislik tarmoqlari etishmasligi
<b>Imkoniyatlar (O)</b>	<b>Xavf-xatarlar (T)</b>
Xorijiy investitsiyalar jalb qilish	Jahon iqtisodiy inqirozlari
Eksportni oshirish	Inflyatsiya darajasining o’sishi
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish	Global raqobat kuchayishi
Yangi ish o’rinlari yaratish	Geosiyosiy noaniqliklar

So’nggi yillarda Farg’ona viloyatida investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar natijasida investitsiyalar hajmi barqaror o’sib

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi

bormoqda.

2-jadval

Farg‘ona viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi<sup>18</sup>

Yillar	Investitsiyalar hajmi (trln so‘m)	O‘sish sur‘ati (%)
2021	16,8	104,2
2022	21,4	127,4
2023	27,9	130,4
2024	34,8	124,7
2025	42,6	122,4

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida viloyatda investitsiyalar hajmi 16,8 trln so‘mdan 42,6 trln so‘mga yetib, qariyb 2,5 barobarga oshgan. Bu esa hududda investitsion jozibadorlikning ortib borayotganligi va iqtisodiy faoliyatning kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng faol sektorlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sektor aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Kichik biznesning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan investitsiya resurslari bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Investitsiyalar hisobiga korxonalarda zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda, ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda va mahsulotlarning raqobatbardoshligi ortmoqda.

3-jadval

Farg‘ona viloyatida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi<sup>19</sup>

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
YAHMdagi ulushi (%)	58,2	59,4	60,8	61,5	62,3
Bandlikdagi ulushi (%)	73,1	73,8	74,5	75,2	76,0
Eksportdagi ulushi (%)	24,6	26,1	27,5	28,7	30,2

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2021-yildagi 58,2 foizdan 2025-yilda 62,3 foizga yetgan. Bandlikdagi ulushi esa 73,1 foizdan 76 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar kichik biznesning hudud iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

2026-yilda “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan Farg‘ona viloyatiga “BB-/Barqaror” kredit reytingining berilishi hududning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligining xalqaro darajada e’tirof etilganligini anglatadi.

Mazkur reyting quyidagi mezonlar asosida shakllantirilgan:

- byudjet intizomi;
- iqtisodiy faollik darajasi;
- moliyaviy barqarorlik;
- qarz yukining maqbul darajasi;
- mahalliy boshqaruv samaradorligi.

<sup>18</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>19</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Reytingning mavjudligi investorlar uchun muhim axborot manbai bo‘lib, hududga investitsiya kiritish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

4-jadval

**Xalqaro kredit reytingining investitsion muhitga ta’siri<sup>20</sup>**

Ko‘rsatkich	Reytinggacha	Reytingdan keyin (prognoz)
Xorijiy investorlar soni	100	125
Investitsiya loyihalari soni	210	275
Xalqaro moliyalashtirish loyihalari	15	22
Eksportchi korxonalar soni	480	620

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xalqaro kredit reytingining olinishi hududga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, investorlar sonini oshirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, investitsiya loyihalari va eksportchi korxonalar sonining oshishi hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Farg‘ona viloyatida investitsiya faolligini oshirish uchun yetarli iqtisodiy salohiyat shakllangan;

investitsiyalar hajmining ortishi kichik biznesning rivojlanishiga va bandlik darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

xalqaro kredit reytingi investorlar ishonchini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi;

reytingning mavjudligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi;

kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion infratuzilmani rivojlantirish orqali Farg‘ona viloyatining investitsion jozibadorligini yanada oshirish mumkin.

Shunday qilib, xalqaro kredit reytingidan samarali foydalanish va investitsion siyosatni izchil davom ettirish orqali Farg‘ona viloyati nafaqat respublika, balki Markaziy Osiyoning muhim investitsiya markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona viloyatida investitsiya faolligini oshirish uchun etarli iqtisodiy baza shakllangan. Xalqaro kredit reytingining olinishi hududning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim institutsional omil hisoblanadi.

Biroq investitsiyalarning iqtisodiyotga ta’siri to‘liq namoyon bo‘lishi uchun quyidagi muammolarni hal qilish talab etiladi:

- tadbirkorlar uchun kredit resurslari qiymatini pasaytirish;
- muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish;
- innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish;
- raqamli investitsiya platformalarini joriy etish;

<sup>20</sup> Manba: Muallif hisob-kitoblari

- investitsiya loyihalarining ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Tahlillar ko'rsatishicha, xalqaro reytingdan samarali foydalanish orqali Farg'ona viloyati nafaqat respublika, balki Markaziy Osiyodagi muhim investitsiya markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

#### **Amaliy takliflar**

- Kichik biznes uchun maxsus hududiy investitsiya fondlarini tashkil etish.
- Yosh tadbirkorlarga imtiyozli mikrokreditlar ajratish.
- Innovatsion startap loyihalarni davlat grantlari bilan qo'llab-quvvatlash.
- Barcha tumanlarda biznes-inkubatorlar tashkil etish.
- Xalqaro investitsiya forumlarini muntazam o'tkazish.
- Soliq imtiyozlarini kengaytirish.
- Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish.
- Eksportchi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.
- Xalqaro reytingni yaxshilash bo'yicha hududiy strategiya ishlab chiqish.

Xalqaro kredit reytingining mavjudligi hududning moliyaviy boshqaruv sifati, byudjet barqarorligi va investitsion jozibadorligini tasdiqlovchi muhim indikator hisoblanadi. Farg'ona viloyatiga berilgan "BB-/Barqaror" reytingi nafaqat xorijiy investorlar ishonchini oshiradi, balki kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Natijada hududda yangi ish o'rinlari yaratilishi, eksport salohiyatining ortishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashishi uchun qulay sharoit vujudga keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Abdullayev Yo.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
3. Балабанов И.Т. Инвестиционный анализ и управление инвестициями. – Москва: Финансы и статистика, 2020.
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998.
5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
6. World Bank. World Development Report 2023: Investing in Sustainable Growth. – Washington DC, 2023.
7. Fitch Ratings. International Credit Rating Methodology. – New York, 2025.
8. International Monetary Fund. Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. – Washington DC, 2024.
9. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2024. – Manila, 2024.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiya

faoliyati to‘g‘risida yillik hisobot. – Toshkent, 2025.

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi statistik to‘plami. – Toshkent, 2025.